
Jahon chempionati sovrindorlari munosib kutib olindi

Italiyada bo'lib o'tgan Butunjahon Sport o'yinlarida sportning qo'l jangi turi bo'yicha kattalar o'rtasida o'tkazilgan Jahon chempionatida muvaffaqiyatli ishtirok etib, yakunda oltin va kumush medal sohibiga aylangan rishtonlik sportchilar - Sodirjon Mahmudov va Nurullo Ibrohimovlar bugun tantanali tarzda kutib olindi.

Rishton tumani hokimi Bahodir Xoliqov chempionni olqishlar ekan, uni kamolga yetkazgan, sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun munosib shart-sharoit yaratib bergan ota-onasiga va yaqinlariga chuqur minnatdorlik bildirdi.

Jahon chempionati sovrindorlariga Rishton tumani hokimining esdalik sovg'alari tantanali tarzda topshirildi.

2023-09-14 11:26:42